

SILYBUM MARIANUM DORIVOR O‘SIMLIGINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Sobirova Mukaddas Batirovna

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

“Biotexnologiya” kafedrası, Biologiya fanlari nomzodi (Ph.D.)

Turdiqulov Farrux Dilshod o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

“Biotexnologiya” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Silybum marianum ko‘pgina adabyotlarda qushqo‘nmas sifatida tanilgan, o‘simlik o‘z tarkibida alkaloidlar, saponinlar, yog‘ kislotalari, oqsil, vitamik K, smola, tiramin, gistamin va ko‘pgina makro va mikroelementlarni saqlaydi, urug‘lari flavonoid, antioksidant xususyatlarga ega. Ushbu maqolada o‘stirish texnologiyasi haqida ma‘lumot berib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: Alkaloidlar, saponinlar, yog‘ kislotalari, oqsil, vitamik K, smola, tiramin, gistamin.

Kirish: Hayotiy shakli bir (madaniylashtirilgan formalarida) yoki ikki yillik tikanli o‘simlikning bo‘yi 1-1,5 metrga yetadi. Poyasi oddiy yoki shoxlangan, tikansiz. Barglari poyada ketma-ket o‘rnashgan, ellipssimon, chetlari o‘yilgan, yirik (uzunligi 80 sm gacha boradi). Barg cheti va uning orqa yuzasidagi tomirlarida bo‘ylab sarg‘ich tikanchalar o‘rnashgan. Barg plastinkasi yashil yaltiroq, yuzasida oq dog‘lari bor. Gullari to‘q qizil, pushti yoki oq rangda bo‘lib, yirik sharsimon yakka savatchada yig‘ilgan. Gulining atrofini tikanli bargchalar o‘rab turadi. To‘pgulning gulo‘rni qalin, tuklar bilan qoplangan. . Barcha gullari

ikki jinsli, naysimon. Iyul-avgust oylarida gullaydi. Mevasi doncha. Silybum marianum (rastoropsha) ning vatani O'rta yer dengizi, Bolqon va Pireney yarimoroli bo'lib, uni Yer yuzining deyarli barcha mintaqasida uchratish mumkin. Tabiiy holatda juda ko'p joylarga iqlimlashgan. Shimoliy Amerika, Eron, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi davlatlarda uni invaziv tur sifatida qayd etishadi. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ko'plab maydonlarda o'sadi. Dorivorlik xususiyati sabab madaniylashtirilgan. Ko'plab davlatlarda, jumladan, Avstraliya, Germaniya, Polsha, Rossiya, ukraina, Xitoy va Argentinada katta maydonlarda ekiladi. Yevropa davlatlarida uni mart-aprel oylarida ekishadi.

Silybum marianumning yetishtirish texnologiyasi.

Silybum marianum dalada o'stirish mumkun, o'simlik suv taminotiga ega bo'lgan qumli tuproqlarda yaxshi o'sib gullaydi. Qishgi yomg'irlardan keyin 20 gradus maksimum 25 gradusda temperaturada judda yaxshi vegetatsiya qiladi.

Yerni tayorlash: O'simlik turoqda chuqur ildiz sistema hosil qilmaydi, ekish ham chuqur talab qilmaydi. Shunday bo'lsaham maydonni shudgorlash zarur. Dalani haydashdan oldin go'ng solinadi va urug'lar yaxshi o'sishi uchun sug'oriladi.

Ekish: Kerakli miqdorda yumshatilgan tuproqqa urug'lar 2-3tadan joylashtiriladi qatorlar oralig'i to'g'irlanadi 1 gektar maydonga 1-1.5 kg urug'lar kultivatsiyalanadi. Urug'larni ekish noyabrdan boshlanadi va dekabr yanvar, fevral, martgacha davom etadi. Urug'lar 6 oylik tinim davridan o'tgach mayning ilk haftasida ular unib chiqadi. Urug'lar unib chiqishi 80% ga yetgandan so'ng ularni yakkalash boshlanadi, sog'lom va baquvat niholar qoldirilib qolganlari olib tashlanadi. Yetuk nihollar iyundan noyabrgacha gullab meva tugadi. Urug'larni ekishda tavsiya ularni ko'proq noyabr oyida, kechikan vaqtda esa dekabrda ekish lozim. Urug'larni ekishda yon tomonga 15 sm dan qatoriga 40sm dan uzoqlikda o'stirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yon barglari tikanli bo'lgani sabab uni

manupulyatsya qilish osonlashadi.

Sug‘orish: Urug‘ unib chiqandan so‘ng birinchi 15 kunlikda yengil sug‘orish talab qiladi. Yil davomida minimal 5 marta sug‘orish lozim. Faol o‘shish davrida etibor bilan sug‘orish lozim, shundan so‘ng qo‘l bil bilan begona o‘tlardan tozalash muhimdir.

Ekinlarni yig‘ish: Gullash boshlangandan so‘ng o‘rim yig‘im 2 ga bolinadi biri may oyi oxirida gullarning 50% yig‘ib olinadi barglari qurib tikanga aylangaligi sabab qo‘lda savatlarga yig‘ib olinadi. Boshchalari yig‘ib olingandan so‘ng quyoshda quritiladi. Qurutish natijasida urug‘lar massaning 10% ni tashkil qiladi.

Xulosa: O‘simlikning maydalangan urug‘laridan olingan kukun jigar hujayralarini va butun a‘zoi badanni yaxshilash uchun eng qimmatli mahsulotdir. U tomirlarni tozalaydi, xolesterin darajasini pasaytiradi, organizmdan toksinlarni chiqarib tashlaydi. Shuningdek, immunitetni oshiradi, to‘qimalarning yangilanishini tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. Yoziyev L.X., Arabova N.Z. (Dorivor o‘simliklar) –Toshkent 2017-yil.